O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI

ISSN
2181-3604

HUQUQIY OLAM
LEGAL WORLD
ПРАВОВОЙ МИР

HUQUQIY
ILMIY-AMALIY
JURNAL

2

2026-yil

www.akadmvd.uz

ISSN 2181-3604
№2.(16). Jyun 2026-yil.

HUQUQIY OLAM

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI

LEGAL WORLD

ACADEMY OF THE MINISTRY OF INTERNAL
AFFAIRS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ПРАВОВОЙ МИР

АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Ilmiy-amaliy jurnal
Scientific and practical journal
Научно-практический журнал

TOSHKENT-2026

Publication.UZ

Article

The institute of exemption from administrative liability: problems and solutions for deconcentration

Zafar M. OKHUNOV [1†]

[1] Independent researcher, Center for methodological support of internal affairs activities, Academy of the ministry of internal affairs of the Republic of, Uzbekistan, Tashkent, 100197, Uzbekistan. e-mail: akhunov.z.m@gmail.com.
* Correspondence:
† Current address: Affiliation.
‡ These authors contributed equally to this work.

Abstract: This article examines the theoretical and practical challenges of exempting individuals from administrative liability for insignificant offenses. It argues that limiting this authority exclusively to courts hinders law enforcement efficiency. Through a comparative analysis of international practices, the study proposes extending this mandate to other authorized officials. Furthermore, the author outlines specific procedural standards and control mechanisms to manage potential risks associated with this decentralization.

Purpose of the study:

Materials and methods of research: The research utilizes a combination of comparative legal analysis and empirical methods, including sociological surveys and a review of law enforcement practices. It evaluates national legislation alongside the legal frameworks of the Russian Federation and other CIS countries, drawing conclusions from judicial precedents and scientific sources.

Results of the study and Conclusion: Analysis reveals that the current judicial process for administrative exemptions takes 5–7 days, reducing procedural efficiency. Due to a lack of jurisdictional authority, officials often bypass the exemption mechanism in favor of direct judicial referral.

Keywords: administrative offense, minor significance, exemption from administrative liability, authority, administrative penalty, prevention, law enforcement practice, comparative legal analysis.

1. Introduction (Kirish)

Mamuriy javobgarlik instituti huquqiy tartib va siyosatni olib borishda davlatning eng muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Biroq barcha mamuriy huquqbuzarliklar ham ijtimoiy xavflilik darajasiga kora bir xil bolmaydi. Shu sababli, qonunchilikda kam ahamiyatli huquqbuzarliklar uchun javobgarlikdan ozod qilish instituti nazarda tutilgan bolsa-da, mazkur mexanizmning amalda faqat sudlar orqali qollanilishi uning samaradorligiga tasir korsatayotgani kuzatilmoqda.

Ayniqsa, huquqbuzarlikni birinchi marotaba sodir etgan, qilmishiga pushaymon bolgan va yetkazilgan zararni bartaraf etgan shaxslarga nisbatan protsessual tartibning ortiqcha murakkabligi huquqni qollash amaliyotida turli nomaqbul yechimlarni keltirib chiqarmoqda.

2. Materials and Methods: (Materiallar va usullar)

Ozbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga kora, mamuriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli deb topilganda, faqatgina sud huquqbuzarni mamuriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin. Agar mamuriy huquqbuzarlik togrisidagi ishni korib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) sodir etilgan mamuriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi haqida xulosaga kelsa, ish huquqbuzarni mamuriy javobgarlikdan ozod qilish haqidagi masalani hal etish uchun MJtKning 3081-moddasida belgilangan tartibda sudga yuborilishi lozim (1).

Ammo bu tartib amaliyotda malum qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, huquqbuzarlikni kam ahamiyatli deb hisoblab, uni javobgarlikdan ozod etish yoki yengilroq mamuriy jazo tayinlash uchun sudga taqdimnoma kiritish uzoqqa chozilgan jarayonni (barcha protsessual

Citation: Zafar M. OKHUNOV . . *LEGAL WORLD* **2026**, *1*, 13–19. https://

Received: 01.05.2026
Revised: 10.05.2026
Accepted: 20.06.2026
Published: 30.06.2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted to *LEGAL WORLD* for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attri- bution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

hujjatlarni tayyorlash, toplash, uni elektron platformalarga yuklash, vaqt, sarf-harajat) talab qilishi sababli, bu amaliyot deyarli qollanilmaydi.

Bu borada Rossiya Federatsiyasi tajribasi etiborga molik. Rossiya Federatsiyasi Mamuriy huquqbuzarliklar togrisidagi kodeksining 2.9-moddasiga kora, “agar sodir etilgan mamuriy huquqbuzarlik kam ahamiyatli bolsa, mamuriy huquqbuzarlik togrisidagi ishni hal qilishga vakolatli sudya, organ, mansabdor shaxs mamuriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni mamuriy javobgarlikdan ozod qilishi va ogzaki ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin” (2). Bu norma mamuriy huquqbuzarliklarni kam ahamiyatli deb hisoblab, ularni javobgarlikdan ozod qilish jarayonini ancha soddalashtiradi.

Olimlar bu borada ikki xil fikr yuritadilar. Ularning ayrimlari huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi tufayli javobgarlikdan ozod qilish vakolatini boshqa mansabdor shaxslarga ham berish ular orasida korrupsiya xavfini oshirishini takidlaydilar. Ikkinchi guruh olimlar esa mazkur vakolatning berilishi mamuriy huquqning huquq siyostiga mos kelishini, yani tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxslariga huquqbuzarga nisbatan oz vakolatlari doirasida mamuriy chora korish vakolati berilganmi, demak ularga vakolati doirasidagi huquqbuzarliklar boyicha huquqbuzarning qilmishini kam ahamiyatli deb topish va ozi mustaqil tarzda tugatish vakolati ham berilishi kerak, deb hisoblaydi.

Fikrimizcha, ikkinchi guruh olimlarining qarashlari mamuriy qonunchilikning insonparvarlik prinsipi va siyosatini har tomonlama qollab-quvvatlaydi. Chunki malum bir sohadagi vakolatli mansabdor shaxsga huquqbuzarlikni aniqlash, uni sodir etgan shaxsga uni muayyan huquqlarini cheklovchi jazolarni qollash huquqi davlat tomonidan ishonib topshirilmoqdami, demak, aynan ushbu shaxsga nisbatan qonunning ragbatlantiruvchi normalarini qollashni ham nazarda tutuvchi vakolatni ham berish lozim.

D.Qaxorov ozining ilmiy qarashlarida aynan biz ilgari surayotgan holatga oxshash muammoni qayd etgan (3). Xususan, u yarashilganligi munosabati bilan mamuriy javobgarlikdan ozod qilish vakolatini faqat sudlarga emas, Ichki ishlar organlari mansabdor shaxslariga ham berish kerakligini bildiradi.

L.A. Lomakina davlatning har qanday huquqqa xilof xatti-harakatga, hatto qilmish kam ahamiyatli bolsa ham muqarrar munosabatini anglatuvchi tarbiyaviy-profilaktik tasir chorasini korsatishi lozim, deb hisoblaydi (4).

Shuningdek, u kam ahamiyatlilikka doir qaror ishning holatlarini kompleks baholashga tayanishi, kam ahamiyatlilik mezonlarini aniq belgilamagani uchun huquqni qolash amaliyotida turli yondashuvlar shakllanganini, bu esa ayrim hollarda normani asossiz qollash xavfini keltirib chiqarishini, huquqni qollovchi organ har bir holatda mustaqil baholash otkazishi lozimligini takidlab, ideal yechim sifatida “kam ahamiyatlilik” tushunchasiga qonun darajasida tarif berish goyasini ilgari suradi. Shu bilan birga, u huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi tufayli javobgarlikdan ozod qilish vakolati boshqa mansabdor shaxslarda ham bolishini qollab-quvvatlaydi. N.V. Tiunova (5) Rossiya Federatsiyasi mamuriy qonunchiligiga kora, agar qilmish kam ahamiyatli deb topilsa, ishni korishga vakolatli sudya, organ yoki mansabdor shaxs mamuriy javobgarlikdan ozod qilish haqida qaror chiqarishi va ish yuritishni toxtatishi mumkinligini, demak, vakolat faqat sudga emas, huquqni qollovchi boshqa subyektlarga ham berilganini bildiradi.

Shuningdek, u ushbu mexanizmning afzalliklari haqida toxtalib, mazkur vakolatning sud bilan bir qatorda, boshqa vakolatli organlar mansabdor shaxslariga ham berilishi huquqbuzarlikka doir ishlarni tez va individual hal qilishga xizmat qilishi, formal tarkiblar bolgan hollarda sanksiyagacha bormasdan ishni tez fursatlarda yakunlash imkoni paydo bolishi, shu bilan birga, bu mexanizm qonunning maqsadga muvofiq qollanishini taminlashini takidlaydi.

3. Results: (Tadqiqot natijalari)

Mamuriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli mamuriy javobgarlikdan ozod qilish subyektlari togrisidagi masala E.T. Sidorov (6) va A.Y. Tarasov tomonidan ham kotarilgan. Ular L.A. Lomakina, N.V. Tiunovalar tomonidan kotarilgan mezonlar va asosiy tushunchalar qonun darajasida aniqlashtirilmagani bilan bogliq masalalarni muhokama qilib, kam ahamiyatli huquqbuzarliklarda jazoning orniga tarbiyaviy–profilaktik tasir chorasini ishlatib, iqtisodiy tejamkorlik va maqsadga muvofiqlikka erishish mumkinligini takidlaydi.

Bundan tashqari, mamuriy huquqbuzarlikdan ozod qilish (shu jumladan, huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli mamuriy huquqbuzarlikdan ozod qilish) masalasida koplab xorijiy davlat (asosan, MDX davlatlari) olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va ular tomonidan korib chiqilayotgan masalaning muayyan jihatlari tatqiq etilgan.

Ularni ilmiy qarashlari va ilgari surgan goyalariga kora, quyidagi guruhlarga bolish mumkin:

1. Konseptual-nazariy asosni, xususan, tarif va mezonlarni tatqiq qilgan olimlar.

Ushbu guruhga Popov A.V., I.A.Fomina (7), Dobriyan S.V., Jidkov A.V. (8), Leonovich M.A. (9), Israyelyan G. (10), Klimova Ye.S. (11) larni kiritish mumkin. Ular huquqbuzarliklarning kam ahamiyatliligini aniq mezonlash va qonun darajasida tarif berish zarurligini, aks holda huquqni qollash amaliyotida mazkur normani qollashda turli yondashuvlar shakllanishini ilgari suradi.

2. Mamuriy javobgarlikdan ozod qilish subyektlari, ularning vakolatlari va protsessual kompetensiyalarni tatqiq qilgan olimlar.

Ushbu guruhga Panov A.B. (12), Shmatyuk A.P. (13), N.K. Mamatazizova (14) larni kiritish mumkin. Ular tomonidan mamuriy javobgarlikdan ozod qilish subyektlari, ularning vakolatlari va protsessual kompetensiyalar tadqiq qilinib, mamuriy javobgarlikdan ozod qilish vakolati sud bilan cheklamasdan boshqa organlar, shu jumladan, mansabdor shaxslarga ham berilishi tezkorlikni oshirishi, biroq bunda aniq meyoriy mezon va nazorat kozda tutilishi lozimligi qayd etilgan.

3. Mamuriy javobgarlikdan ozod qilish institutini xorijiy tajribalar asosida qiyosiy tahlil qilgan va milliy modellarni ishlab chiqqan olimlar.

Ushbu guruhga Kajdarov A. (15), Kusainova A.K. (16), Musralinov A.S. (17), Andrian C. (18), A. Antoci (19)larni kiritish mumkin. Ular ayrim MDHga azo davlatlarning (Armaniston, Qirgiziston, Tojikiston, Ozarbayjon, Maldova) mamuriy huquqbuzarliklarga oid qonunchiligini qiyosiy tahlil qilib, ayrim davlatlardagi huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli mamuriy javobgarlikdan ozod qilish vakolatini faqat sudlarga berilganini tanqid qilgan. Shu nuqtayi nazardan, tahlil qilinayotgan asosga kora, mamuriy javobgarlikdan ozod qilish vakolatini ayrim shartlar asosida qolgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ham tatbiq etishni taklif qilganlar.

Malumki, taklif etilayotgan har qanday mexanizm undan manfaatdor bolgan vazirlik va idora, huquqshunos olimlar va jamoatchilik orasida muhokama qilinishi, taklif etilayotgan mexanizmning salbiy va ijobiy jihatlari tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Shu orinda huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli, mamuriy huquqbuzarlikdan ozod qilish vakolatini sudlar bilan bir qatorda, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar xodimlariga berishning afzalliklari va salbiy jihatlarini ham korib chiqsak.

4. Discussion (Muhokama)

Huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli, mamuriy javobgarlikdan ozod qilish vakolatini boshqa huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organlar xodimlariga ham berilishining afzalliklari quyidagilarda namoyon boladi:

birinchidan, avvalo, ushbu taklif iqtisodiy tejamkorlik va tezkorlik nuqtayi nazaridan mamuriy huquq siyosatiga mosdir. Chunki ishni 308-1-modda tartibida sudga yuborish vaqt va resurslarni ortiqcha sarflanishiga olib keladi, agarda ushbu vakolat ishni korib chiqish vakolatiga ega bolgan organ xodimiga berilsa jarayonni 1-2 kunda huquqiy mezonlarga rioya qilgan holda yakunlash kuch, vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi;

ikkinchidan, ushbu yechim busiz ham ish hajmi haddan ziyod kop bolgan sudlarning, shu jumladan boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuklamasini sezilarli darajada kamaytiradi, ijtimoiy xafvi yuqori bolmagan huquqbuzarliklar boyicha toplangan hujjatlar xodimlar qolida yoki sud jarayonida toplanib qolishining oldi olinadi va ushbu organlar sudlar diqqatini huquqiy jihatdan murakkabroq ishlarga qaratish imkonini beradi;

uchinchidan, ishni korib chiqayotgan dastlabki vakolatli organ tomonidan ijtimoiy xavfi past qilmishlarda shaxsning xulqi, zararning bartaraf etilgani va hamkorlik darajasi etiborga olingan holda, tarbiyaviy tasir chorasi sifatida ogohlantirish bilan kifoyalanish orqali individuallashtirish tamoyili amalda taminlanadi;

tortinchidan, tez va adolatli yechim fuqarolar ortasida “qonun kuchini” korsatib, ularda qonunlarga va davlat organlariga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi, shuningdek, fuqarolarni

kam ahamiyatli qilmishlar uchun ortiqcha ovora qilmasdan, uning orniga profilaktik tasir orqali tarbiyalashga ustuvorlik beriladi;

beshinchidan, idoralararo hamkorlik tezlashadi, protsessual hujjatlarni tayyorlash, onlayn bazalarga yuklash va kutish sarfi qisqaradi, muayyan sohada tez-tez takrorlanuvchi qoidbuzarliklar boyicha yagona amaliyot shakllanadi va ijrochilik intizomi mustahkamlanadi.

Aksincha, huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli mamuriy javobgarlikdan ozod qilish vakolatini sudlardan tashqari boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berishning salbiy jihatlari quyidagilarda namoyon boladi:

1) qonunchilikda aniq mezonlar belgilanmasa, hudud va idoralarda turli xil amaliyot shakllanadi, bu esa huquqni qollashda barqarorlik darajasini pasaytiradi, shuningdek, ortiqcha diskretsiya suiistemolchilik risklarini oshirib, manfaatdorlik yoki “tanish-bilish” tasirining, korrupsiya omillarining paydo bolishiga sharoit yaratadi;

2) prokuratura va boshqa yuqori idoralar nazorati susaysa, Konstitutsiyada kafolatlangan fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishi holatlari kuzatilishi mumkin, shuningdek, mazkur mexanizm ustidan prokuratura va boshqa yuqori idoralar tomonidan yetarlicha nazorat ornatilmasa, asoslantirilmagan qaror hamda prokuratura idoralari va sudlar tomonidan ushbu mazmundagi qarorlarning bekor qilinishi kopayishi, ish samaradorligi tushishi mumkin;

3) muayyan talab, shart, istesno qiluvchi holatlar aniq belgilanmasa fuqarolarda qonunlarga nisbatan hurmatsizlik tuygusi shakllanishi, oqibatda kam ahamiyatli qilmishlarni qayta va qayta sodir etish (retsidiv) holatlari uchrashi mumkin, shuningdek, turli idoralarda turlicha yondashuv shakllansa, fuqarolar uchun huquqiy imkoniyatlarning tengsizligi vujudga keladi, bu esa teng huquqlilik, qonuniylik va adolat tamoyillariga xavf soladi;

4) amaliyot xodimlarining huquqiy bilmlari oshirilmasa, ular tomonidan kam ahamiyatlilikni jazoni yengillashtiruvchi yoki huquqbuzarlik tarkibi mavjud bolmagan holatlar bilan aralashtirib qoyish ehtimoli oshadi, bu esa kvalifikatsiya qilishdagi xatoliklarni kopaytirishi mumkin, shuningdek, kam ahamiyatlilikni jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ayrim huquqbuzarliklarga (masalan, qopol ravishda yol harakatida qoidalarini buzish) nisbatan notogri tatbiq etish jamoat tartibini saqlash tizimiga salbiy tasir korsatishi mumkin;

5) huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi tufayli tugatilgan ishlarning yagona reestri va hisobot yuritilmasa, ogohlantirishlar qayd etib borilmasa, takroriy huquqbuzarliklar yoki kam ahamiyatlilik tufayli mamuriy javobgarlikdan ozod qilingan holatlarni aniqlash va nazoratni amalga oshirish qiyinlashadi.

5. Conclusions: (Xulosalar)

Bizningcha, yuqorida sanab otilgan xavflar biz taklif etayotgan tartibni rad etish uchun emas, balki uni togri yolga qoyish uchun ogohlik sifatida qabul qilinishi kerak. Agar qonunning ozida aniq qoida va istisno holatlar royxati belgilab qoyilsa, prokuratura hamda yuqori idoralar tomonidan doimiy nazorat ornatilsa, fuqaro uchun tez va ochiq shikoyat yoli ishlasa, kam ahamiyatlilik asosida tugatilgan ishlar boyicha yagona hisobot yuritilsa va masul xodimlar zarur oquv-tayyorgarlikdan otsa, xavflar keskin kamayadi.

Taklif etilayotgan tartib ozining asosiy maqsadlari, yani ishni tez hal qilish, ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirish, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar yuklamasini yengillashtirish, shaxsga nisbatan adolatli va tarbiyaviy yol tutishni toliq namoyon qiladi va aholi manfaatlariga xizmat qiladi.

Shunga kora, mamuriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli mamuriy huquqbuzarlikdan ozod qilish vakolatini boshqa huquqni muhofaza qiluvchi vakolatli organ xodimlariga berishda muayyan shartlarni, yagona protsessual standartlar, mezon va istisnolarni aniq qayd etish lozim.

Bizningcha, bunda quyidagi tartibdagi “shartlar – istisnolar – protsessual standartlar – nazorat” zanjiri bolishi lozim.

Qollash shartlari (kimga va qay holda tatbiq etiladi):

Mamuriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli ozod qilish vakolati suddan tashqari vakolatli organlar tomonidan quyidagi shartlar asosidagina qollanilishi mumkin:

qilmishning ijtimoiy xavfi pastligi;

zarar yetkazilmagani yoki toliq bartaraf etilgani;

shaxsning xulqi ijobiy tavsiflanishi;

huquqbuzarlikni birinchi marotaba sodir etgani, qilmishiga amalda pushaymonligi hamda huquqbuzarlikni fosh etishda hamkorlik qilgani;

tomonlarning ozaro munosabati barqarorlashgani (norozilik hal etilgani);

shaxs sodir etgan mamuriy huquqbuzarlik shu ishni korib chiqayotgan organ vakolatiga taalluqliligi;

qonun buzilishining sabablari tola tushuntirilgan, bu haqida bayonnoma rasmiylashtirilgan va kelgusida bunday holatga yol qoymaslik haqida ogohlantirilgan.

Mamuriy huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli mamuriy javobgarlikdan ozod qilish quyidagi holatlarda qollanilishi mumkin emas:

huquqbuzarlik mastlik holatida sodir etilgan bolsa;

qilmish moddiy oqibatga (zararga) olib kelgan va u bartaraf etilmagan bolsa;

qilmish jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid soladigan turga kirsa (masalan, sanksiyada qamoq jazosi nazarda tutilgan bolsa, (ushbu qoidaning amal qilishi moddaning qamoq jazosi nazarda tutilmagan boshqa yengilroq qismlariga nisbatan tatbiq etilmaydi);

shaxs ilgari huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi, taraflarning yarashganligi munosabati bilan mamuriy javobgarlikdan ozod etilgan bolsa.

Huquqni qollash amaliyotida yagona protsessual standartlarni shakllantirish maqsadida:

ishni korib chiqayotgan xodim mazkur ish yuqorida nazarda tutilgan maxsus shartlarga toliq mos kelishini (shaxsga doir malumotlari, ilgari mamuriy huquqbuzarlik sodir etilganligi va uning natijasi, zarar holati, istisnolar) tekshiradi;

qaror barcha protsessual talablar asosida (huquqbuzarlikning mazmuni, qonun normasi, nega kam ahamiyatli, deb topilgani va h.k.) shakllantiriladi;

qaror, albatta, rahbar tomonidan tasdiqlanadi;

huquqbuzarga uning huquq va majburiyatlari, yuqori idoralarga yoki sudga shikoyat qilish tartibi yozma ravishda tushuntiriladi;

huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi tufayli tugatilgan ishlarning yagona elektron reestri va xisoboti yuritilishi taminlanadi, qaror 24 soat ichida mazkur yagona elektron reestrga kiritiladi hamda nazorat qiluvchi prokurorga yuboriladi;

mazkur tartib dastlab sinov tariqasida bir yoki bir necha hududda yolga qoyiladi, mazkur asos bilan tugatilgan ishlarning ortacha korib chiqish vaqti, bekor qilingan qarorlar soni va ulushi kabi korsatkichlar asosida tizim va uning natijadorligi baholanadi.

Yuqoridagilarga kora, Ozbekiston Respublikasi Mamuriy javobgarlik togrisidagi kodeksining 21-moddasini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etiladi:

“Ma’muriy huquqbuzarlik alomatlariga ega bo‘lsa-da, sodir etilgan huquqbuzarlik xarakteri, huquqbuzarning roli, zarar miqdori va yuzaga kelgan oqibatning og‘irlik darajasiga ko‘ra, ijtimoiy xavflilik xususiyati juda kam bo‘lgan harakat yoki harakatsizlik kam ahamiyatli deb hisoblanib, bunday holda sud, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod etib, uni ogohlantirish bilan kifoyalanishi mumkin.

Ilgari sodir etgan huquqbuzarligi uchun huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli ma’muriy javobgarlikdan ozod qilingan shaxs tomonidan bir yil davomida takroran ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, uni mazkur ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish mumkin emas. Ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin takroran sodir etilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan huquqbuzarliklarni kam ahamiyatli deb topish mumkin emas.”

Oylaymizki, huquqbuzarliklarni kam ahamiyatli deb baholash va ular uchun javobgarlikni belgilash tizimini takomillashtirish, jumladan ushbu jarayonni soddalashtirish nafaqat mamuriy huquqbuzarliklarni korib chiquvchi organ faoliyatini optimallashtirish, balki fuqarolarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishga ham xizmat qiladi.

Author Contributions:

Oxunov Z. M.

- Ishning barcha jihatlari uchun javobgar bo‘lishga rozilik bildirilgan va taqdim etilgan tadqiqot ishining har qanday qismini puxta va vijdonan bajarish bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan va hal qilingan.

Funding: Tadqiqot ishi moliyalashtirilmagan.

Institutional Review Board Statement: Tadqiqot ishi barcha standartlarga muvofiq amalga oshirilgan. Tadqiqot protokoli axloqiy qo‘mita tomonidan tasdiqlangan

Informed Consent Statement: Tadqiqotda boshqa mualliflar ishtirok etmagan

Data Availability Statement: Tadqiqotda taqdim etilgan asl materiallar maqolaga kiritilgan. Muallifga qo‘shimcha so‘rovlar yuborilishi mumkin.

Conflicts of Interest: Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmagan.

References: (Adabiyotlar)

1. Ozbekiston Respublikasining Mamuriy javobgarlik togrisidagi kodeksi : qonun hujjati. – [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/97664 (murojaat sanasi: 17.10.2024).
2. Kodeks Rossiyskoy Federatsii ob administrativnix pravonarusheniyax: Federalniy zakon. – [Elektron resurs]. – URL: http://www.consultant.ru/document/cons$_{a}oc_{L}AW_{3}4661/(murojaatsanasi$: 17.10.2024).
3. Qaxxorov D.G. Ozbekiston Respublikasida yarashilganligi munosabati bilan mamuriy javobgarlikdan ozod qilish institutini takomillashtirish // Ilmiy maqola. – [Elektron resurs]. – URL: https://zenodo.org/records/7095760 (murojaat sanasi: 13.09.2025).
4. Lomakina L.A. Ponyatiye maloznachitelnosti administrativnogo pravonarusheniya v KoAP RF // Administrativnoye pravo. – [Elektron resurs]. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie (murojaat sanasi: 13.09.2025).
5. Tiunova N.V. Maloznachitelnost deyaniya kak osnovaniye dlya osvobojdeniya ot administrativnoy otvetstvennosti: aktualnыe voprosы pravoprimenitelnoy praktiki // Yuridicheskiy jurnal. – [Elektron resurs]. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maloznachitelnost (murojaat sanasi: 13.09.2025).
6. Sidorov E.T. Nekotorie problemi pravovogo instituta osvobojdeniya ot administrativnoy otvetstvennosti // Pravo i praktika. – [Elektron resurs]. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye (murojaat sanasi: 13.09.2025).
7. Popov A.V., Fomina I.A. Ponyatiye i kriterii maloznachitelnosti sovershennogo administrativnogo pravonarusheniya // Nauchnaya statya. – [Elektron resurs]. – URL: https://pdfs.semanticscholar.org/5f1 (murojaat sanasi: 13.09.2025).
8. Dobriyan S.V., Jidkov A.V. Maloznachitelnost administrativnogo pravonarusheniya kak osnovaniye osvobojdeniya ot administrativnoy otvetstvennosti v Respublike Belarus // Sravnitelnoye pravovedeniye. – [Elektron resurs]. – URL: https://etalonline.by/document (murojaat sanasi: 13.09.2025).
9. Leonovich M.A. Notarialnaya deyatelnost v epoxu informatizatsii // Yuridicheskaya nauka. – [Elektron resurs]. – URL: https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/246206/1/146-148.pdf (murojaat sanasi: 13.09.2025).
10. Israyelyan G. O voprose sovershenstvovaniya instituta osvobojdeniya ot administrativnoy otvetstvennosti v Respublike Armeniya // Konstitutsionnoye pravosudiye. – [Elektron resurs]. – URL: https://www.concourt.am/pdf/uploads/6582d4ccf22ec6israelyan149-162.pdf (murojaat sanasi: 13.09.2025).
11. Klimova Ye.S. Sravnitelno-pravovoy analiz norm ob osnovaniyax, osvobojdayuщix ot administrativnoy otvetstvennosti po KoAP Respubliki Belarus i KoAP Rossiyskoy Federatsii // Nauchnaya statya. – [Elektron resurs]. – (murojaat sanasi: 13.09.2025).
12. Panov A.B. O maloznachitelnosti administrativnix pravonarusheniy // Jurnal Visshey shkoli ekonomiki. – [Elektron resurs]. – URL: https://law-journal.hse.ru/article/download/21393/18550/ (murojaat sanasi: 13.09.2025).
13. Shmatyuk A.P. Osvobojdeniye ot administrativnoy otvetstvennosti pri maloznachitelnosti pravonarusheniya // Nauchnie trudi MVD. – [Elektron resurs]. – URL: https://elib.institutemvd.by/jspui/bitstream/MVDNAM/6733/1/ (murojaat sanasi: 13.09.2025).
14. Mamatazizova N.K. Otdelnie aspektы kriticheskogo analiza Kodeksa Кыгдызskoy Respubliki ob administrativnoy otvetstvennosti // Pravovoy analiz. – [Elektron resurs]. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/otdelnye-aspekty (murojaat sanasi: 13.09.2025).
15. Kajdarov A. Problemi primeneniya st. 68 KoAP Respubliki Kazaxstan // Vestnik prava. – [Elektron resurs]. – URL: https://bulletin-law.kaznu.kz (murojaat sanasi: 13.09.2025).
16. Kusainova A.K. Aktualnыe problemi otvetstvennosti za sovershenіye pravonarusheniy v oblasti nalogooblojeniya // Nauchnoye issledovaniye. – [Elektron resurs]. – URL: https://academy-rep.kz/uploads/d5ac1fa0f5f3916594d48e8e262b8fa7.pdf (murojaat sanasi: 13.09.2025).

17. Musralinov A.S. Analiz praktiki primeneniya zakonodatelstva Respubliki Kazaxstan v oblasti oxrani prav avtorov proizvedeniy // Nauchnaya statya. – [Elektron resurs]. – (murojaat sanasi: 13.09.2025).
18. Andrian C. Principiile procedurii contravenționale // Revista științifică. – [Electronic resource]. – URL: https://suprematia.revistestiintifice.md/wp-content/uploads/2021/01/articol-15.pdf (murojaat sanasi: 13.09.2025).
19. Antoci A. Contravențiile din domeniul circulației rutiere în legislația Republicii Moldova și a României: aspecte comparative // Studiu comparativ. – [Elektron resurs]. – URL: https://ibn.idsi.md/sites/default/files/imagfile/62-6924.pdf (murojaat sanasi: 13.09.2025).